

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“TARMOQLAR IQTISODIYOTI” KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 334.75:338:336.5(575.1)

TOLIBOV G‘OLIB KO‘KLAM O‘G‘LI

TADBIRKORLIK SUBEKTLARINING TASHQI IQTISODIY
FAOLIYATINI YANADA RAG‘BATLANTIRISHDA TIJORAT
BANKLARINING ROLI

70310102– “Iqtisodiyot” (tarmoqlar va sohalar) mutaxassisligi bo‘yicha

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.d,professor. Sh.R.XOLMO‘MINOV

TOSHKENT – 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan. 5 - sonli bayonnoma "25" 04 2023 y.

Ilmiy rahbar: i.f.d professor. SH.R.XOLMO'MINOV



Magistr: G.K.TOLIBOV




Dissertatsiya ishi Iqtisodiyot fakultetida 2023 yil "19" 05

№ 1/13 raqami bilan ro'yxatga olingan

"Himoyaga ruxsat etiladi"

"Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrası

mudiri dots. I.Xotamov 

"08" "05" 2023 yil

Himoya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida

2023 yil "22" 05 soat "10⁰⁰" da bo'ladi.

ANNOTATSIYA

Mazkur dissertatsiyada quyidagi ilmiy va amaliy natijalar hosil qilindi: tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati rag'batlantirishda tijorat banklarining ta'siri bo'yicha xorijiy tajribalar tahlil qilindi, tadqiqot nazariy va metodologik asoslari ishlab chiqildi, O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatining rivojlanishi dinamikasi va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlandi, tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini tijorat banklari orqali kreditlashning amaldagi mexanizmlari taklif etildi, tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini tijorat banklari orqali kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish buyicha xulosa va takliflar ishlab chiqildi. O'rganilgan va tahlil qilingan ma'lumotlar asosida tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada rag'batlantirishda tijorat banklarini rolini oshirish bo'yicha ilmiy va amaliy asoslangan xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqdik.

Kalit so'zlar: moliya bozorini, rag'batlantirish, tashqi iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik, raqobat, eksport, tashqi bozor, korxonalar, tijorat banklari, barqaror o'sish, moliyalashtirish, xorijiy banklar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar.

Summary

In this dissertation, the following scientific and practical results were obtained. Foreign experiences on the influence of commercial banks in stimulating the foreign economic activity of business entities were analyzed, the theoretical and methodological foundations of the research were developed, the dynamics of the development of the foreign economic activity of business entities in the Republic of Uzbekistan and their impact on it. Indicative factors were analyzed, current mechanisms of crediting the foreign economic activities of business entities through commercial banks were proposed, conclusions and proposals were developed on the improvement of the mechanisms of lending foreign economic activities of business entities through commercial banks, based on the studied and analyzed data. We developed scientific and practical conclusions, proposals and recommendations on increasing the role of commercial banks in further stimulating foreign economic activity.

Key words: financial market, incentives, foreign economic activity, entrepreneurship, competition, export, foreign market, enterprise, commercial banks, sustainable growth, financing, foreign banks, foreign direct investments.

MUNDARIJA

ANNOTATSIYA	3
MUNDARIJA	5
KELTIRILGAN JADVALLAR.....	6
KELTIRILGAN QISQARTMALAR.....	8
I BOB. KIRISH.....	9
1.1. Dissertatsiya mavzusining o'rganilganligi va dolzarbligi:.....	10
1.2.tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	11
1.3.tadqiqotning asosiy muammo va savollari:.....	11
1.4.tadqiqot ob'ekti va predmeti.....	12
1.5.tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati	12
1.6.magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi va hajmi	12
II-BOB. Tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirishda tijorat banklari rolini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari (adabiyotlar sharhi va tahlili).....	14
2.1. Tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati bo'yicha ilmiy yondashuvlar sharhi 14	
2.2. Tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati rag'batlantirishda tijorat banklarining ta'siri bo'yicha xorijiy tajribalar tahlili.....	22
II-bob bo'yicha xulosalar	45
III-BOB. Tadqiqot metodologiyasi	47
3.1. Tadqiqot nazariy va metodologik asoslari:	47
3.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar:	48
IV BOB.Tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati yanada rag'batlantirishda tijorat banklarining ta'siri tahlili.....	49
4.1. O'zbekiston respublikasida tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatining rivojlanishi dinamikasi va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili.....	49
4.2. Tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini tijorat banklari orqali kreditlashning amaldagi mexanizmlarini tahlili.....	59
iv-bob bo'yicha xulosalar	78
V-BOB. Tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini tijorat banklari orqali rag'batlantirishni takomillashtirish yo'llari (xulosa va takliflar)	79
5.1. Tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini tijorat banklari orqali kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflar	79
v-bob bo'yicha xulosalar	88
foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	96

Kirish

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlarda faol tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "2030 yilga borib, O'zbekiston jon boshiga hisoblaganda, aholi daromadlari o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin egallaydi. Bunga, avvalo, xususiy sektorni rag'batlantirish va uning ulushini oshirish hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisobidan erishish ko'zda tutilmoqda"¹.

Respublikamizda eksportni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, uning hajmi barqaror o'sishini ta'minlash va tarkibini takomillashtirish, mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirishda xususiy tadbirkorlikning rolini har tomonlama oshirish, eksportchi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, milliy mahsulotlarning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlash va valyuta tushumlarini ko'paytirish hozirgi kunda mamlakatimizda hal qilinishi lozim bo'lgan dolzarb masalalardan sanaladi. Bunda birinchi navbatda, tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, ayniqsa tijorat banklarining bu jarayondagi ishtiroki va faolligini rivojlantirish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026 yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSh dollariga yetkazish; xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish; eksportchi korxonalariga ko'rsatilayotgan tashkiliy va moliyaviy yordam berish tizimini takomillashtirish orqali respublika eksport salohiyatini oshirish; mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko'rish;

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma mailisidagi nutqi. 2021 yil 6 noyabr. www.prezident.uz.